

## UMUMTA'LIM MAKTAB DARSLIKLARIDA NEMIS MILLATIGA XOS BO'LGAN URF-ODATLARNING BERILISHI

**Yusupova Dilnoza O'ktamali qizi**

*QDPI, Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til kafedrası o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Quyidagi maqola umumta'lim maktablarining nemis tili darsliklarida urf-odatlarini berilishi haqida bo'lib, unda o'quv majmualarida milliylikka, qadriyatlarga, shuningdek, urf-odatlariga xos mavzularga yetarli darajada e'tibor qaratish kerakligi haqida fikrlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *didaktika, Schülerbuch, Arbeitsbuch, Lehrerhandbuch, CD, Glossar, elektron pochta, <http://gutenberg.spiegel.de>.*

Ma'lumki, xorijiy tillarni o'qitish va o'rgatishda qaysi darsliklardan foydalanish kerak degan masala tegishli vazirliklar va mutaxassislar oldida muammo sifatida turadi. Darslik yozish ham o'z navbatida fan dasturlari asosida yetuk mutaxassislar zimmasiga bir qancha mas'uliyat yuklaydi. Bu o'rinda Germaniyada nashr etilgan turli bilim darajalariga mos darsliklar ham mavjudligini e'tirof etishimiz lozim. Nemis tilida gaplashadigan mamlakatlarda chop etilgan qaysi o'quv majmualari mos kelishini hal qilish uchun ularning baholash mezonlariga ega bo'lishimiz kerak. G.Noyner nazariyasiga ko'ra, o'quv majmualarini sotsiologiya, umumiy didaktika, umumta'lim nazariyasi va maktab pedagogikasi, tilshunoslik, adabiyot, matn nazariyasi kabi ilmiy fanlar bilan bog'liq holda tadqiq etildi.

Biz darsliklarni tahlil qilish jarayonini nemis metodist olimi G.Noyner mezonlariga asoslangan holda ko'rib chiqishni joiz deb topdik.

Ma'lumki, so'nggi yillarda didaktik mezonlar asosida olib borilgan tadqiqotlarda dars markazida turgan o'quvchilarning dars jarayonidagi faolliklariga va o'quv jarayoniga e'tibor qaratila boshlandi. Chunki shu vaqtgacha metodist olimlar dars markaziga o'qituvchini qo'yib, faqatgina uning faoliyatiga e'tibor qaratib kelgan edilar. Masalan, o'qituvchining pedagogik mahorati, bilim darajasi kabilarga.

Darslik qaysi bilim darajasiga yo'naltirilganligini (A1, A2, B1, B2, C1), maqsadli guruhlarni, shuningdek, darslik bilan ishlashga qo'yiladigan talablarni nazarda tutishi kerak. Bundan tashqari, mustaqil o'rganish bo'yicha ko'rsatmalar yoki topshiriqlar bo'lishi lozim. (Neuner, Gerhard, 1979)

Ma'lumki, an'anaviy grammatika bu talablarning barchasiga javob bermaydi, chunki unda atamalar yetarlicha aniq belgilanmagan va tavsif darajalarini aniq ajrata olmaydi. O'quvchi uchun grammatikadan tashqari, leksikaning mazmuni va qo'llanilishini o'zlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Matnlar chet til o'qitishda asosiy rol o'ynashi barchamizga ma'lum. Masalan, darsliklardagi matnlar autentiv (haqiqiy, original, asl nusxa) bo'lishi lozimligi, sababi autentiv matnlar orqali til o'rganuvchilar tili o'rganilayotgan mamlakatning madaniyati, urf-odatlarini, turmush tarzlarini ham o'rganish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Nemis metodist olimi

S.Ballweg ( S.Ballweg, 2013 ) taklif qilgan mezonlar amalda qo'llanilishi osonligi bilan e'tiborga loyiqdir. S.Ballweg mezonlariga ko'ra, darslikning didaktik, lingvistik jihatlarini alohida ko'rib chiqish kerak. S.Ballweg mezonlarni oltita guruhga ajratadi va ularning har biri yana kichik mezonlarga bo'linishini ko'rishimiz mumkin.

1960-yillarning boshlarida chet tillarni o'qitishda yanada samaraliroq natijalarga erishishni yo'lga qo'yish bilan birga uni barqaror nazariy asoslarga yo'naltirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Mazkur izlanishlarga ko'ra yaratiladigan o'quv majmualariga ham ma'lum bir talablar qo'yila boshlandi. Masalan, o'quv majmuasi deganda quyidagi qismlarga ega bo'lgan o'quv majmualarini tushunishni nemis metodist olimi B.Hufeisen ta'kidlaydi: O'quvchi kitobi (Schülerbuch), ish daftari (Arbeitsbuch), o'qituvchi kitobi yoki metodik qo'llanma (Lehrerhandbuch), CD, Glossar, qo'shimcha o'quv materiallari (Zusatzlestoff), onlayn tavsiyalar (Onlineangebote) va boshqalar. Bundan tashqari, mavzular o'quvchilarning yoshiga va qiziqishlariga mos bo'lishi, matnlar autentik hamda badiiy matnlar bo'lishi lozimligi, o'quv majmuasida berilgan boblarining mazmun jihatidan bir-biriga mos bo'lishi, grammatika va, shuningdek, interfaol usullar qo'llanilishi, mavjud til ko'nikmalari (o'qish, tinglab tushunish, gapirish va yozma ifodalar) teng qo'llanilishi, metodik ko'rsatmalar e'tiborga olinganligi, interfaol usullar qo'llanilishiga qaratilgan bo'lishi, mashq va topshiriqlar o'quvchilar tomonidan xatolarga yo'l qo'yilsa-da og'zaki nutqni o'stirishga qaratilishi, shunday o'quv texnikalari bo'lishi kerakki, unda til o'rganuvchilar mustaqil o'rganishlari lozimligi, o'rni bilan axborot vositalari qo'llanilib turilishi kabilar talab darajasidagi darslik sifatida e'tirof etildi.

Biz quyida yaqin 10 yillar davomida o'zbek o'quvchilari uchun qo'llanilib kelingan, Xalq ta'limi vazirligi tomonidan nashrga tavsiya etilgan umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflari uchun mo'ljallangan "Deutsch mit Spaß" (1,2,3,4-sinflar) o'quv majmualarini va 2023-o'quv yilidan foydalanishga tavsiya etilgan Germaniyaning Klett nashriyoti tomonidan nashr etilgan "Wo ist Paula", "Die Deutschprofis" o'quv majmualarini tahlil qilishga harakat qilamiz.

"Deutsch mit Spaß" (1,2,3,4 -sinflar) o'quv majmualarining 2-sinf va

4-sinf uchun taqdim etilgan o'quv majmualarida urf-odatlar alohida mavzu sifatida berilganligini ko'rishimiz mumkin. (Dadahodjayeva M.S,2020)

"Deutsch mit Spaß" 2-sinf o'quv majmuasi o'z ichiga 14 bob (Lektion)ni olib, uning 9-mavzusi "Die Feiertage" (bayram kunlari) deb nomlanadi. Unda ham o'zbek, ham nemis urf-odatlari yoki bayramlarini aks ettiruvchi "Mein Geburtstag" (Mening tug'ilgan kunim), "Einladung zum Geburtstag" (Tug'ilgan kunga taklif qilish), "Der Frauentag" (Ayyollar bayrami), "Weihnachten" (Rojdestvo) mavzulari kiritilgan.

Ko'rinadiki, "Mein Geburtstag" (Mening tug'ilgan kunim), "Einladung zum Geburtstag" (Tug'ilgan kunga taklif qilish) mavzulari har ikki madaniyatga xos bo'lgan urf-odat yoki bayram hisoblanadi. Chunki, har ikki madaniyat vakillari tug'ilgan kun marosimini nishonlaydilar va tug'ilgan kun sohibi yoki sohibalariga sovg'alar taqdim etadilar.

"Der Frauentag" (Ayyollar bayrami) kuni haqida boshlang'ich sinfnining ikkinchi sinf o'quvchilari uchun dastlabki ma'lumot, ya'ni 8-mart ayollar bayrami ekanligi, bahor

faslida bo‘lib o‘tishi, onasiga qanday sovg‘a qilish mumlinligi haqida o‘qish, yozish, tinglab tushunish va gapirishga qaratilgan mashq va topshiriqlar beriladi.

“Weihnachten” (Rojdestvo) mavzusi bo‘yicha o‘quvchilar “Weihnachten” ning ramziy belgilari, qanday bayram ekanligi haqida tushunchaga ega bo‘ladilar va turli mashq va topshiriqlarni bajaradilar.

Shu davrga qadar qo‘llanilib kelingan umumta‘lim maktablarining xorijiy til darsliklarida ikki davlatga doir urf-odatlar, milliy qadriyatlar mavzusidagi turli mavzular o‘rin olar edi. Bu orqali o‘quvchilar nafaqat o‘zga madaniyatni, balki o‘z madaniyatini ham chuqur anglash imkoniyatiga ega bo‘lar edilar.

O‘quv majmualarida milliylikka, qadriyatlarga, shuningdek, urf-odatlarga xos mavzularning yetarli darajada bo‘lmasligi jiddiy ko‘rib chiqilishi lozim bo‘lgan munozarali holdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Neuner, Gerhard; Hunfeld, Hans. Methoden des fremdsprachlichen Deutschunterrichts. – Langenscheidt: München, 1979.
2. S.Ballweg u.a. Wie lernt man die Fremdsprache Deutsch? – Klett: München, 2013. – 148 s.
3. [www.lehrwerke.de](http://www.lehrwerke.de) Murojaat sanasi 12.12.2023.
4. [www.lehrwerke.de](http://www.lehrwerke.de) Murojaat sanasi 12.12.2023.
5. Dadahodjayeva M.S. und andere Deutsch mit Spass 4. – Toshkent, 2020. –
6. Dadahodjayeva M.S. und andere Deutsch mit Spass 2. – Toshkent, 2020. –
7. ogli Bokijonov, F. A. (2024). ANALYSIS OF DEASES IN ELDERLY AND SENILE PERSONS, AFFECTING ACTIVE WORK ACTIVITY. Innovative Development in Educational Activities, 3(1), 360-364.
8. Boqijonov, F. A., Nazirova, M. R., & Mamadaliyev, D. D. (2024). HYGIENIC ASSESSMENT OF THE LEVEL OF ATMOSPHERIC AIR POLLUTION.